

JINOYATLARNI TERGOV QILISH JARAYONIDA TAKTIK VAZIFALAR TUSHUNCHASI

Ubaydullayev Ilxomjon Raxmatovich

FarDU “Huquqshunoslik” fakulteti

“Maxsus huquqiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19280144>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyatlarni tergov qilish jarayonida taktik vazifalar tushunchasi, ularning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan.

Muallif tomonidan taktik vazifalarning tergov vaziyati bilan uzviy bog‘liqligi, ularning shakllanishi va hal etilishining kriminalistik ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, taktik vazifalarning strategik (yakuniy) va oraliq vazifalar bilan o‘zaro nisbatlari ochib berilib, ularni to‘g‘ri belgilash tergov samaradorligining muhim sharti ekanligi ta’kidlangan. Maqolada taktik vazifalarning tasnifi, xususan funksional vazifasi, maqsad darajasi hamda hal etish darajasiga ko‘ra turlari keng yoritilgan. Bundan tashqari, zamonaviy sharoitda tergovga qarshilik ko‘rsatish holatlari va ularni yengib o‘tishning taktik jihatlari alohida e’tibor markazida bo‘lib, bu yo‘nalishdagi dolzarb muammolar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyatlarni tergov qilish, kriminalistik taktika, taktik vazifa, tergov vaziyati, taktik qaror, strategik vazifa, oraliq vazifa, kriminalistik usullar, taktik kombinatsiya, taktik operatsiya, tergovga qarshilik, dalillarni to‘plash, isbotlash jarayoni, tergov samaradorligi, kriminalistik faoliyat.

Аннотация. В данной статье научно-практически проанализированы понятие тактических задач в процессе расследования преступлений, их сущность и специфические особенности. Автор обосновывает тесную взаимосвязь тактических задач со следственной ситуацией, а также их формирование и криминалистическое значение в процессе решения. Кроме того, раскрыто соотношение тактических задач со стратегическими (конечными) и промежуточными задачами, подчёркивается, что их правильное определение является важным условием эффективности расследования. В статье подробно освещена классификация тактических задач, в частности по функциональному назначению, уровню цели и уровню решения. Также особое внимание уделено вопросам противодействия расследованию в современных условиях и тактическим аспектам его преодоления, рассмотрены актуальные проблемы в данном направлении.

Ключевые слова: расследование преступлений, криминалистическая тактика, тактическая задача, следственная ситуация, тактическое решение, стратегическая задача, промежуточная задача, криминалистические методы, тактическая комбинация, тактическая операция, противодействие расследованию, сбор доказательств, процесс доказывания, эффективность расследования, криминалистическая деятельность.

Abstract. This article provides a scientific and practical analysis of the concept of tactical tasks in the process of criminal investigation, as well as their essence and specific features. The author substantiates the close interrelation between tactical tasks and investigative situations, highlighting their formation and forensic significance in the course of investigation. Furthermore, the relationship between tactical tasks and strategic (final) as well as intermediate tasks is examined, emphasizing that their proper identification is a key condition for the effectiveness of the investigation. The article also presents a comprehensive classification of

tactical tasks, particularly according to their functional purpose, level of objectives, and level of resolution.

In addition, special attention is given to issues of resistance to investigation under modern conditions and the tactical aspects of overcoming such resistance, with a focus on current challenges in this field.

Key concepts: criminal investigation, forensic tactics, tactical task, investigative situation, tactical decision, strategic task, intermediate task, forensic methods, tactical combination, tactical operation, resistance to investigation, evidence collection, process of proof, investigation efficiency, forensic activity.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini ta'minlash, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish va to'liq, xolis tergov qilish masalalari zamonaviy huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda kriminalistika fani, ayniqsa uning taktika bo'limi muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan kriminalistik taktika doirasida jinoyatlarni tergov qilishda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish, maqbul usul va vositalarni tanlash hamda ularni to'g'ri qo'llash masalalari hal etiladi.

Jinoyatlarni tergov qilish jarayoni doimiy ravishda o'zgarib turuvchi tergov vaziyatlari bilan xarakterlanadi. Mazkur vaziyatlar esa o'z navbatida turli xil taktik vazifalarning shakllanishiga olib keladi. Taktik vazifalar tergovchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular jinoyatni fosh etish, dalillarni to'plash, tekshirish va baholash, shuningdek jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga qaratilgan amaliy masalalarni qamrab oladi.

Ayni paytda, zamonaviy kriminalistikada jinoyatlarni tergov qilishga faoliyatga asoslangan va situatsion yondashuvlarning keng joriy etilishi taktik vazifalarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zaruratini yanada oshirmoqda. Tergovchi tomonidan to'g'ri qo'yilgan va o'z vaqtida hal etilgan taktik vazifalar jinoyatlarni samarali tergov qilishning muhim sharti hisoblanadi. Aksincha, taktik vazifalarni noto'g'ri belgilash yoki ularni hal etishda xatolarga yo'l qo'yish tergov jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, jinoyatlarni tergov qilishda taktik vazifalar tushunchasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning mohiyatini ochib berish hamda amaliyotda qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada jinoyatlarni tergov qilishda taktik vazifalarning tushunchasi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va tergov jarayonidagi o'rni ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etiladi.

Jinoyatlarni tergov qilishda taktik vazifa — bu muayyan tergov vaziyatidan kelib chiqadigan va jinoyatni samarali fosh etish hamda tergov qilishni ta'minlash maqsadida hal etilishi lozim bo'lgan taktik xarakterdagi aniq masalalar majmuasidir. U tergovchi tomonidan shakllangan vaziyatni tahlil qilish va baholash asosida belgilanadi hamda muayyan taktik qarorlarni qabul qilishni talab etadi.

Taktik vazifalarning mohiyati shundaki, ular jinoyatni ochish va isbotlash jarayonida yuzaga keladigan amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, ularni amalga oshirishda taktik usullar, vositalar va kriminalistik tavsiyalardan foydalaniladi. Bu vazifalar, odatda, strategik (yakuniy) maqsadlarga erishish uchun oraliq bosqich vazifalari sifatida namoyon bo'ladi.

Taktik vazifalarning vujudga kelishi bevosita tergov vaziyati bilan bog'liq bo'lib, ular doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shu sababli tergovchi har bir konkret holatda vaziyatni hisobga

olgan holda tegishli taktik vazifalarni aniqlab, ularni hal etishning eng maqbul yo'llarini tanlashi lozim.

Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida hal etiladigan taktik vazifalar kriminalistlar tomonidan avval ham tadqiq etilgan. Bunda "taktik vazifa" tushunchasi bilan bir qatorda "tergov harakatining taktik maqsadi" tushunchasi ham qo'llanilgan. Masalan, V.P. Kolmakov ta'kidlaganidek, "hodisa joyini ko'zdan kechirishning taktik maqsadlarini to'g'ri anglash birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, bu ko'zdan kechirishni aniq yo'naltirilgan, maqsadga qaratilgan va ijodiy harakatga aylantiradi... shu bilan birga, ko'zdan kechirish jarayonida hal etiladigan taktik vazifalarni ham nazarda tutish lozim. Bu vazifalar isbotlash predmeti bilan belgilanadi..."¹

Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarda kriminalistik taktika kriminalistika fanining bo'limi sifatida tergovning taktik vazifalarini hal etish vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan nazariy qoidalar tizimi sifatida tavsiflanadi. Bunda taktik vazifa situatsion omillar bilan belgilangan holda kriminalistik faoliyatning keyingi bosqichlari uchun qulay sharoitlarni yaratish yoki mavjud sharoitlardan foydalanish maqsadida muayyan obyektga taktik ta'sir ko'rsatish zarurati sifatida ta'riflanadi.²

Vazifani hal etishning asosida axborotni muayyan tarzda o'zgartirish yotadi. Shuni hisobga olgan holda, maxsus adabiyotlarda kriminalistik vazifa (keng ma'noda) jinoyat-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan vaziyat sifatida ta'riflanadi, u bilish obyekti haqidagi dastlabki axborotni yangi ma'lumotlar olish imkonini beradigan miqdor va ko'rinishga keltirish uchun harakatlar majmuasini amalga oshirishni talab qiladi hamda bu ma'lumotlar jinoyat ishini to'g'ri hal qilishda qo'llaniladi.³

Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida deyarli barcha hollarda bilish obyekti haqidagi dastlabki axborot nafaqat yuzaga kelgan masalalarni hal etish uchun yetarli bo'lmaydi, balki uni muayyan tarzda qayta ishlash, olingan natijalarni baholash va, odatda, yangi vazifani qo'yishni talab qiladi.

Shakllangan tergov vaziyatining xususiyati bilan yuzaga keladigan taktik vazifalar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi shubhasizdir. Bizning fikrimizcha, jinoyatlarni tergov qilishda taktik vazifa — bu yuzaga kelgan tergov vaziyatidan kelib chiqadigan va jinoyatlarni samarali tergov qilishni ta'minlash maqsadida hal etilishi lozim bo'lgan taktik xarakterdagi aniq masalalar majmuasidir.

Yakuniy va ular orqali amalga oshiriladigan oraliq (taktik) vazifalar o'rtasidagi nisbatni to'g'ri belgilash jinoyatlarni dastlabki tergov qilish faoliyati samaradorligining muhim sharti hisoblanadi. Tergovning strategik vazifalari mazkur faoliyatning yakuniy maqsadi, muayyan jinoyat ishi bo'yicha isbotlash predmetining mazmuni bilan belgilanadi hamda jinoyatning jinoyat-huquqiy xarakteristikasini ifodalovchi elementlar va holatlarni aniqlashdan iborat bo'ladi.

Qayd etilishicha, turli strategik vazifalarni hal etish murakkablik darajasi jihatidan bir xil emas. Masalan, jinoyatchi shaxsini aniqlash va uning aybdorligini belgilash, odatda, bir qator kriminalistik harakatlar (operatsiyalar)ni amalga oshirishni talab qiladi. Strategik vazifalarni hal etishning vositali xarakteri esa ularni amalga oshirishda izchil ravishda aniq taktik vazifalarni hal

¹ Колмаков В.П. Следственный осмотр. – М.: Юрид. лит., 1969. – 196 с.

² Гаврилин Ю.В., Головин А.Ю., Тишутина И.В. Криминалистика в понятиях и терминах. – М.: Книжн. мир, 2006. – 384 с.

³ Эсаулов А.Ф. Психология решения задач. – М.: Высш. шк., 1972. – 216 с.

etishni taqozo etadi, bu esa kriminalistik operatsiyalar, kombinatsiyalar va alohida tergov harakatlarini o'tkazish orqali ta'minlanadi.

Tergov jarayonida yuzaga keladigan taktik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan tergovchi shaxsiga, uning kriminalistik bilim va ko'nikmalariga bog'liq. Tergov jarayonining murakkabligi, shu bilan bog'liq obyektiv va subyektiv omillar taktik vazifalarni hal etish jarayonida turli taktik xatolarga yo'l qo'yilish ehtimolini keltirib chiqaradi.

Umuman olganda kriminalistik vazifalarni quyidagi asoslar bo'yicha tasniflash taklif etilgan: funksional vazifasiga ko'ra, maqsad darajasiga ko'ra va hal etish darajasiga ko'ra. Bunday tasnif vazifalarni hal etish uchun eng maqbul bo'lgan muayyan vosita va usullarni tanlashni ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Funksional vazifasiga ko'ra kriminalistik vazifalar uch toifaga bo'linadi: predmet-ishlab chiqarishga oid, ilmiy-qidiruvga oid va tashkiliy-boshqaruvga oid.

Maqsad darajasiga ko'ra vazifalar umumiy va xususiy turlarga ajratiladi, hal etish darajasiga ko'ra esa oraliq va yakuniy vazifalarga bo'linadi.⁴

Fikrimizcha, zamonaviy sharoitlarda tergovning dolzarb taktik vazifasi sifatida tergovga qarshilikni yengib o'tishni e'tirof etish lozim. Tergovga an'anaviy qarshilik ko'rsatish shakllari (yolg'on ko'rsatma berish, tergovdan yashirinish, ko'rsatma berishdan bosh tortish va h.k.) fonida keyingi yillarda jinoyat ishlari bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishning boshqa usullari ham paydo bo'ldi.

Tergovga qarshilik ko'rsatish ko'pincha oldindan rejalashtirilishi, faol va muntazam amalga oshirilishi aniqlangan. Haqiqatni yashirishdan manfaatdor shaxslar tomonidan qo'llaniladigan usullar, vositalar va metodlar tergov uchun jiddiy xavf tug'diradi, ayrim hollarda esa uni ijobiy istiqboldan mahrum qiladi.

Ilgari tergovga qarshilik deganda, asosan, jinoyatni yashirishning turli shakl va usullari tushunilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu tushuncha mutaxassislar tomonidan asosli ravishda kengroq talqin qilinadi, ya'ni tergovga qarshilik jinoyat ishi bo'yicha tergov vazifalarini hal etishga va pirovardida haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilish maqsadida amalga oshiriladigan qasddan qilingan faoliyat sifatida.

Shu munosabat bilan tergovga qarshilikni yengib o'tish taktikasi muammolarini ishlab chiqish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda, chunki bu jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini to'liqroq ta'minlash, jinoiy qilmishlar natijasida yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq vazifalarni hal etishga xizmat qiladi.

Bunday qarshilikni yengib o'tish taktik vazifasini hal qilish ba'zan umuman jinoyatlarni fosh etish va dastlabki tergov qilish bo'yicha strategik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishning zarur sharti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish lozimki, tergovning taktik vazifalarini quyidagi turlarga ham ajratish mumkin:

Birinchidan, bilishga oid vazifalar, ya'ni tergov qilinayotgan voqea holatlarini kriminalistik ahamiyatga ega axborotni aniqlash va tadqiq etish yo'li bilan belgilash;

Ikkinchidan, boshqaruvga oid vazifalar, ya'ni ishda ishtirok etayotgan shaxslarni tergovga jalb qilish, psixologik aloqani yo'lga qo'yish va taktik ta'sir hamda ularning xulq-atvorini boshqarishning eng maqbul shakllaridan foydalanish orqali ular bilan samarali hamkorlikni ta'minlash;

⁴ Полевой Н.С. Криминалистическая кибернетика. – М.: Изд-во Моск. ун-т, 1989. – 328 с.

Uchinchidan, tashkiliy-texnik vazifalar, faoliyat uchun eng maqbul tashqi shart-sharoitlar va zarur tashkiliy-texnik vositalarni ta'minlash. Tergov amaliyoti uchun taktik vazifalarni ular qaysi taktik vositalar yordamida hal etilishi mumkinligiga qarab ham tasniflash foydali ko'rinadi.

Shu asosda quyidagi turlarni ajratishni taklif etish mumkin:

- alohida taktik usullarni qo'llash orqali hal etilishi mumkin bo'lgan tergov taktik vazifalari;

- taktik kombinatsiyalardan foydalanish hisobiga amalga oshiriladigan tergov taktik vazifalari;

- taktik operatsiyalarni o'tkazish orqali erishiladigan tergov taktik vazifalari.

So'zimiz yakunida aytish mumkinki, bugungi kunda jinoyatlarni tergov qilishda taktik vazifalarni shakllantirish va ularni hal etish vositalarini belgilash bilan bog'liq kriminalistik taktika muammolarini keyingi tadqiq etish kriminalistika fani uchun ham qiziqish uyg'otadi, ham katta amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ищенко Е.П., Топорков А.А. Криминалистика. Учебник. – М: ИНФРА-М КОНТРАКТ. 2010
2. Ландау И.Л. Ситуационный подход в технико-криминалистическом обеспечении предварительного расследования и судебного следствия: Автореферат дис. ... канд. юрид. наук. – Калининград, 2002. – 21 с.
3. Корноухов В.Е. О системах тактических задач и операций при расследовании убийств и их специфике на начальном этапе расследования // Проблемы оптимизации первоначального этапа расследования преступлений: Межвузовский сб. науч. трудов / Отв. ред. И.Ф. Герасимов, Л.Я. Драпкин. – Свердловск: Свердл. юрид. институт, 1988. – С. 85–90.
4. Гаврилин Ю.В., Головин А.Ю., Тишутина И.В. Криминалистика в понятиях и терминах. – М.: Книжн. мир, 2006. – 384 с.
5. Эсаулов А.Ф. Психология решения задач. – М.: Высш. шк., 1972. – 216 с.
6. Полевой Н.С. Криминалистическая кибернетика. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1989. – 328 с.